ZAMON RIVOJLANISHINING TILGA TA'SIRI

Gafurova Mohichehra
O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22980869

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamiyat, fan-texnika, raqamli texnologiyalar va globallashuv jarayonlarining til taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy ijtimoiy hayotda yangi tushunchalarning paydo bo'lishi natijasida yangi so'z va terminlarning tilga kirib kelishi, o'zlashma birliklarning faollashuvi hamda internet kommunikatsiyasi ta'sirida til qo'llanishining o'zgarishi yoritiladi. O'zbek tilining raqamli muhitdagi imkoniyatlari va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan bog'liq rivojlanishi ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, tavsiflash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar til rivoji jamiyat taraqqiyotining ajralmas bir bo'lagi ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijasida zamonaviy o'zbek tilida raqamli va ijtimoiy sohalarga oid yangi leksik qatlam faol shakllanayotgani, bunda o'zlashma va neologizmlar nisbati oshib borayotgani aniqlandi.

Kalit so'zlar: til taraqqiyoti, zamon, globallashuv, neologizm, terminologiya, raqamli texnologiyalar, internet tili, sun'iy intellekt.

ABSTRACT

This article analyzes the influence of social development, science and technology, digital technologies, and globalization on language development. It examines the emergence of new words and terms, the increasing use of loanwords, and changes in language use under the influence of Internet communication. The study also considers the digital potential of the Uzbek language and its prospects in artificial intelligence technologies. The research uses methods of analysis, comparison, description, and generalization. The findings demonstrate that language development is closely connected with social and technological progress.

Keywords: language development, modern era, globalization, neologism, terminology, digital technologies, Internet language, artificial intelligence.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется влияние общественного развития, науки и техники, цифровых технологий и глобализации на развитие языка. Рассматриваются появление новых слов и терминов, активизация заимствованной лексики, а также изменения в употреблении языка под воздействием интернет-коммуникации. Особое внимание уделяется цифровым возможностям узбекского языка и его перспективам в сфере технологий искусственного интеллекта. В исследовании использованы методы анализа, сравнения, описания и обобщения.

Ключевые слова: развитие языка, современность, глобализация, неологизм, терминология, цифровые технологии, язык Интернета, искусственный интеллект.

KIRISH

Til jamiyat bilan birga rivojlanadigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va texnologik o'zgarishlar bevosita tilning lug'at tarkibi, uslubiy imkoniyatlari va kommunikativ shakllariga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, XXI asrda internet, mobil aloqa, ijtimoiy

tarmoqlar, raqamli xizmatlar va sun'iy intellektning rivojlanishi til taraqqiyotiga ham sezilarli darajada ta'sir qildi.

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 7 mingdan ortiq til mavjud, lekin ularning faqat bir qismi raqamli muhitda yetarli darajada namoyon bo'lmoqda. Shu sababli tilning raqamli makondagi mavjudligi uning zamonaviy hayotdagi barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi [1].

Tadqiqotning maqsadi — zamonaviy ijtimoiy va texnologik taraqqiyotning o'zbek tili rivojiga ta'sirini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish. Tadqiqot obyekti — zamonaviy o'zbek tilining rivojlanish jarayoni, predmeti, yangi leksik birliklar, terminologik qatlam, o'zlashmalar, raqamli kommunikatsiyadagi til hodisalari va shuningdek, tildan asta-sekin chiqib ketayotgan so'zlarni o'rganish

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, tahliliy va umumlashtiruvchi metodlardan foydalanildi. O'zbek tilining zamonaviy taraqqiyotini yoritishda rasmiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar materiallari, terminologik lug'atlar hamda ilmiy maqolalardan foydalanildi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yangi birliklarning ommalashuvi va tarqalishiga ta'sir qiluvchi kommunikativ muhit sifatida baholandi. Tadqiqotda 2020–2026-yillar oralig'ida nashr etilgan ilmiy va rasmiy manbalar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalaridagi o'zbek tilining qanday qo'llanilishi tahlil qilindi. Qiyoslash metodi orqali an'anaviy adabiy til me'yorlari zamonaviy raqamli muhitdagi til bilan solishtirildi. Til rivojlanishi, sayqallanishi bilan birga tildan (sheva) chiqib ketayotgan so'zlar tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Jamiyat taraqqiyoti va yangi so'zlarning paydo bo'lishi

Jamiyatda yangi predmet, hodisa va tushunchalarning yuzaga kelishi ularni ifodalovchi yangi til birliklariga ehtiyoj tug'diradi. Natijada neologizmlar shakllanadi yoki mavjud so'zlarga yangi ma'no yuklanadi. Zamonaviy o'zbek tilida raqamli iqtisodiyot, elektron xizmatlar, media va texnologiyalar bilan bog'liq ko'plab birliklarning faol qo'llanishi ana shu jarayonning natijasidir. Jumladan, "elektron hukumat", "onlayn ariza", "masofaviy ta'lim", "raqamli imzo", "mobil ilova" kabi so'zlar so'nggi o'n yil ichida faollashgan va hozirda rasmiy hujjatlarda ham izchil qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilining ilmiy va terminologik imkoniyatlarini kengaytirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2023-yilda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan tayyorlangan "Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati"da qariyb 10 mingta termin jamlangan bo'lib, bu raqamli sohada o'zbekcha terminologik bazani shakllantirishga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi [2].

2. Fan-texnika taraqqiyoti va terminologiya

Ilm-fan va texnologiyalar rivojlangan sari maxsus sohalarga oid terminlar soni ortib boradi. Informatika, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, dasturlash, raqamli iqtisodiyot kabi yo'nalishlar yangi terminlarning shakllanishini tezlashtirmoqda. Terminlarni o'zbek tilida izchil me'yorlashtirish ilmiy kommunikatsiyaning aniqligi va ta'lim jarayonining samaradorligi uchun muhimdir.

O'zbek tiliga yangi terminlarni kiritishda ularning milliy til imkoniyatlariga mosligi, ma'nosining aniqligi, talaffuz va yozuv me'yorlariga muvofiqligi hamda amaliy qo'llanish qulayligi hisobga olinishi zarur [3].

Texnologiya va internet rivojlanishi bilan tilimizda paydo bo'lgan yangi so'zlar (neologizmlar):

Sun'iy intellekt (AI) — inson aqliy faoliyatiga xos vazifalarni bajaruvchi texnologiya. **Generativ AI** — matn, rasm, audio, video yoki kod yarata oladigan sun'iy intellekt. **Chatbot** — foydalanuvchi bilan avtomatik muloqot qiluvchi dastur.

Kiberxavfsizlik — kompyuter tizimlari va ma’lumotlarni raqamli tahdidlardan himoyalash sohasi.
Kvant kompyuteri — kvant mexanikasi tamoyillariga asoslangan hisoblash qurilmasi.
Kvant interneti — kvant axborotini uzatishga asoslangan kelajakdagi aloqa tizimi.
Bulutli texnologiya — ma’lumot va dasturlarni masofaviy serverlarda saqlash va ulardan foydalanish texnologiyasi.
Big Data (katta ma’lumotlar) — juda katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish texnologiyasi.
Blokcheyn — ma’lumotlarni taqsimlangan raqamli zanjir ko‘rinishida saqlash texnologiyasi.
Kriptografiya — axborotni himoyalash va maxfiylashtirish usullarini o‘rganuvchi soha.
Metaverse (metakoinot) — virtual va raqamli muhitlarning o‘zaro bog‘langan konsepsiyasi.
Virtual reallik (VR) — maxsus qurilmalar orqali yaratiladigan sun’iy uch o‘lchamli muhit.
Kengaytirilgan reallik (AR) — real muhitga raqamli obyekt va ma’lumotlarni qo‘shish texnologiyasi.
Aralash reallik (MR) — real va virtual obyektlarning birgalikda ishlashini ta’minlovchi texnologiya.
Raqamli egizak (Digital Twin) — real obyekt yoki tizimning raqamli modeli.
Robototexnika — robotlarni yaratish, dasturlash va qo‘llash sohasi.
Kobot (cobot) — inson bilan birgalikda ishlash uchun yaratilgan hamkor robot.
Dron — masofadan yoki avtomatik boshqariladigan uchuvchisiz qurilma.
Avtonom transport — insonning doimiy boshqaruvisiz harakatlana oladigan transport vositasi.
Elektromobil — elektr energiyasi yordamida harakatlanadigan avtomobil.
Bioprinting — tirik hujayralardan biologik to‘qimalarni 3D printer yordamida yaratish texnologiyasi.
Nanotexnologiya — moddaning nihoyatda kichik, nanometr miqyosidagi tuzilmalari bilan ishlash sohasi.
Bioinformatika — biologik ma’lumotlarni kompyuter texnologiyalari yordamida tahlil qilish sohasi.
Genomika — organizm genomini o‘rganadigan fan sohasi.
Gen tahriri — organizm DNKsining muayyan qismlarini o‘zgartirish texnologiyasi.
Telemeditsina — tibbiy xizmatlarni masofadan turib raqamli texnologiyalar orqali ko‘rsatish.
Wearable texnologiya — inson tanasida taqib yuriladigan aqlli elektron qurilmalar.
Aqlli soat (smartwatch) — sog‘liq, aloqa va boshqa funksiyalarni kuzatuvchi elektron qurilma.
Aqlli uy (smart home) — uy jihozlarini avtomatik yoki masofadan boshqarish tizimi.
IoT (Internet of Things) — turli qurilmalarning internet orqali o‘zaro bog‘lanish tizimi.
Edge computing — ma’lumotlarni markaziy serverga yubormasdan, unga yaqin qurilmalarda qayta ishlash texnologiyasi.
Deepfake — sun’iy intellekt yordamida yaratilgan yoki o‘zgartirilgan realistik audio, video yoki tasvir.
Deep learning — katta hajmdagi ma’lumotlardan murakkab qonuniyatlarni o‘rganishga asoslangan mashinaviy o‘rganish yo‘nalishi.
Machine learning (mashinaviy o‘rganish) — kompyuterning ma’lumotlar asosida o‘z faoliyatini takomillashtirish usuli.
Prompt — sun’iy intellekt tizimiga beriladigan topshiriq yoki ko‘rsatma.
Prompt muhandisligi — AI tizimlaridan kerakli natijani olish uchun samarali ko‘rsatmalar tuzish sohasi.
Kiberfizik tizim — fizik jarayonlar va raqamli boshqaruv tizimlarining birlashuvi.
Smartfon — telefon, kompyuter va internet funksiyalarini birlashtirgan mobil qurilma.
3D-printing — raqamli model asosida uch o‘lchamli obyekt yaratish texnologiyasi.
Superkompyuter — juda katta hajmdagi hisob-kitoblarni yuqori tezlikda bajarishga mo‘ljallangan kompyuter.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bularni alohida guruhlarga ham ajratish mumkin: **o‘zlashma**

neologizmlar (*prompt, chatbot, metaverse*), **kalka asosidagi birliklar** (*sun'iy intellekt, raqamli egizak, katta ma'lumotlar*) va **gibrid birliklar** (*aqlli soat, kiberxavfsizlik, elektromobil*).

3. Globallashuv va o‘zlashma so‘zlar

Globallashuv turli tillar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi. Xalqaro savdo, ta'lim, internet va ommaviy axborot vositalari orqali boshqa tillardan yangi birliklar o‘zbek tiliga kirib kelmoqda. Yuqorida namuna berildi. Bunday o‘zlashmalar tilning lug‘at tarkibini boyitishi mumkin, biroq ularni me'yorlashtirishda tilning ichki qonuniyatlari va milliy xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim.

So‘nggi yillarda o‘zlashmalarning katta qismi ingliz tilidan, ayniqsa axborot texnologiyalari va biznes sohasida ("startap", "fritlanser", "kontent", "akkaunt" kabi), kirib kelmoqda, rus tili orqali o‘zlashgan leksika esa asosan avvalgi davrlardan saqlanib qolgan. Demak, zamonaviy til taraqqiyoti faqat yangi so‘zlarni qabul qilishdan iborat emas. Muhimi, yangi birliklarning til tizimiga qanday moslashishi, jamiyat tomonidan qay darajada qabul qilinishi va adabiy me'yorlarda qanday mustahkamlanishidir.

Chetdan kirib kelayotgan yangi so‘zlar ayniqsa, yoshlar orasida juda tez ommalashmoqda. Ularning hayotining bir qismiga aylanib bormoqda desak ham xato qilmagan bo‘lamiz. Chunki internet rivojlanishi har jabhani egalladi.

4. Internet kommunikatsiyasi va til

Internet va ijtimoiy tarmoqlar til o‘zgarishlarining tezligini oshiruvchi muhitga aylandi. Ilmiy tadqiqotlarda veb-saytlar va ijtimoiy media yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi hamda tarqalishini kuzatish uchun muhim korpus manbasi bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan [5].

Raqamli muloqotda qisqartmalar, norasmiy yozuv shakllari, aralash kodlar va yangi iboralar keng qo‘llaniladi. Hatto "trend" darajasiga chiqib ketayotgan so‘zlar ham mavjud. Ularning ayrimlari vaqtinchalik bo‘lsa, boshqalari keng ommalashib, tilning faol qatlamiga kirib bormoqda. O‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoq muloqotida qisqartma yozuvlar ("rmt" — rahmat, "yxsh" – yaxshi), lotin-kirill aralash yozuv hamda "laykladim", "postladim", "istoriyaladim" yoki "xotiraladim" kabi yangi fe'l yasalishlari kuzatilmoqda; bunday shakllar vaqt o‘tishi bilan og‘zaki nutqqa ham ta'sir ko‘rsatadi.

5. Sun'iy intellekt va o‘zbek tilining raqamli istiqbollari

Sun'iy intellekt, mashina tarjimasi, nutqni avtomatik tanish, matnni qayta ishlash va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari tilning raqamli muhitdagi mavqeini mustahkamlash imkonini beradi. UNESCO ham til texnologiyalarini rivojlantirishni ko‘p tillilikni raqamli makonda qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatadi [1, 4].

O‘zbek tilining bunday texnologiyalarda sifatli ishlashi uchun katta hajmdagi raqamli matn korpuslari, standartlashtirilgan terminologiya, belgilangan lingvistik ma'lumotlar va sifatli elektron lug‘atlar zarur. Bu borada O‘zbek tili milliy korpusi (uzbekcorpora.uz) loyihasi allaqachon ishga tushirilgan bo‘lib, tokenlash, lemmalash va grammatik belgilashni o‘z ichiga oladi; hozirgi kunda o‘n millionlab so‘zni qamragan, biroq dunyoning yirik korpuslariga nisbatan hajmi kichik va og‘zaki nutq materiallari yetarli emas [6]. Bu jarayon tilshunoslik va axborot texnologiyalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab qiladi.

6. Tildan chiqib ketayotgan so‘zlar

Tilga har tomondan yog‘ilib kelayotgan yangi so‘zlar, tilning yanada rivojlanib takomillashib borishi ba'zi so‘zlarning nutqdan chiqib ketishiga sabab bo‘moqda. Ayniqsa bunday holatlar shevalarda ko‘proq. Shevaga xos so‘zlar adabiy so‘zlarga o‘z o‘znini bo‘shatib bermoqda. Masalan, Xorazm shevasidagi "ashaq" – past; "chanaq" – tarelka, tovoq, tog‘oracha; "hamma jigi" – hammasi; to‘rg‘ay -

mayna kabi so‘zlari hozirda Xorazmning kamdan kam joylarida foydalaniladi yoki o‘z muqobiliga almashtirilgan.

XULOSA

Zamon taraqqiyoti tilning rivojlanishiga kuchli va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy hayotdagi yangiliklar yangi so‘z va ma’nolarning paydo bo‘lishiga, fan-texnika rivoji terminologik qatlamning kengayishiga, globallashuv o‘zlashmalarning ko‘payishiga, internet esa til birliklarining tez tarqalishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbek tilining zamonaviy taraqqiyotini ta’minlash uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: 1) IT va ijtimoiy tarmoq leksikasidagi neologizmlarni Davlat tili qo‘mitasi darajasida izchil me’yorlashtirish; 2) O‘zbek tili milliy korpusini (uzbekcorpora.uz) og‘zaki nutq va ijtimoiy tarmoq matnlari hisobiga kengaytirish; 3) sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarida o‘zbek tili uchun sifatli, katta hajmdagi ma’lumotlar bazasini yaratish; 4) ijtimoiy tarmoqlardagi yangi so‘z yasalish modellarini (masalan, fe’l yasovchi qo‘shimchalar bilan o‘zlashmalarni moslashtirish) muntazam kuzatib borish; 5) o‘zlashmalarni qabul qilishda tilning ichki qonuniyatlarini saqlagan holda milliy terminologik an’analarga moslashtirish; 6) tildan chiqib ketayotgan so‘zlar tahlili.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Global Roadmap for Multilingualism in the Digital Era. Paris, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati. Rasmiy muomalaga kiritiladigan yangi so‘z va atamalar xususida. Toshkent, 2026.
4. UNESCO. Multilingualism and Linguistic Diversity. UNESCO materiallari.
5. Würschinger, Q., El Khatib, A., & Schulte im Walde, S. Using the Web and Social Media as Corpora for Monitoring the Spread of Neologisms. Web as Corpus Workshop, 2016.
6. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbek tili milliy korpusi. uzbekcorpora.uz (murojaat sanasi: 2026).